O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

Odil MUSAYEV,
Professor, DSc, Fan va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: odilmusayev71@jmail.com

Professor, s.f.d F.Ravshanov taqrizi asosida

DAVLAT SIYOSATIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada etnopolitologiyada shakllangan asosiy nazariyalar, liberalizm, multikulturalizm, integratsionizm va fuqarolik millatchiligi yondashuvlari, etnik konfliktlarning kelib chiqishi va ularni siyosiy boshqarish mexanizmlari, siyosiy integratsiya hamda ijtimoiy hamjihatlik konsepsiyalari, shuningdek, zamonaviy etnopolitik jarayonlarni tadqiq etish metodologiyasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Liberalizm, multikulturalizm, integratsionizm, fuqarolik millatchiligi, etnik konfliktlar, davlat siyosati, polietnik jamiyat, etnos, millat, milliy identiklik, millatlararo munosabatlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖЭТНИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются основные теории, сформировавшиеся в этнополитической науке, подходы либерализма, мультикультурализма, интеграционизма и гражданского национализма, истоки этнических конфликтов и механизмы их политического урегулирования, концепции политической интеграции и социальной сплоченности, а также методология изучения современных этнополитических процессов.

Ключевые слова: Либерализм, мультикультурализм, интеграционизм, гражданский национализм, этнические конфликты, государственная политика, полиэтническое общество, этнос, нация, национальная идентичность, межэтнические отношения.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF INTERETHNIC RELATIONS IN STATE POLICY

Annotation

This article analyzes the main theories formed in ethnopolitical science, the approaches of liberalism, multiculturalism, integrationism, and civic nationalism, the origins of ethnic conflicts and mechanisms for their political management, the concepts of political integration and social cohesion, as well as the methodology for studying modern ethnopolitical processes.

Key words: Liberalism, multiculturalism, integrationism, civic nationalism, ethnic conflicts, state policy, multi-ethnic society, ethnos, nation, national identity, inter-ethnic relations.

Kirish. Zamonaviy polietnik jamiyatlarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, avvalo, etnik xilma-xillikning siyosiy jarayonlarga ta’siri, davlat va etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar, fuqarolik identifikatsiyasi, siyosiy integratsiya, ijtimoiy hamjihatlik va etnik konfliktlarning oldini olish mexanizmlarini kompleks o‘rganishni taqozo etadi. Chunki polietnik jamiyatda millatlararo munosabatlar faqat madaniy yoki ijtimoiy aloqalar doirasi bilan cheklanmay, davlat hokimiyati, siyosiy institutlar, siyosiy ishtirok, huquqiy tenglik va jamoaviy identifikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Etnopolitologiya siyosatshunoslikning etnik, milliy va madaniy identifikatsiyalarning siyosiy jarayonlarga ta’sirini o‘rganuvchi muhim yo‘nalishlaridan biridir. Uning tadqiqot obyektiga etnik guruhlarning siyosiy faolligi, etnik identifikatsiya, etnik partiyalar, etnik konfliktlar, davlatning milliy siyosati, etnik vakillik, siyosiy integratsiya hamda polietnik davlatlarda barqarorlik masalalari kiradi.

Etnopolitologiyaning nazariy rivojlanishida etniklikni tushuntirishga qaratilgan bir nechta asosiy yondashuvlar shakllangan. Ular qatoriga primordializm, instrumentalizm, konstruktivizm va etnosimvolizmni kiritish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Primordialistik yondashuv etnik mansublikni tarixiy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lgan, til, qon-qarindoshlik, urf-odat, din, hudud va umumiy kelib chiqish kabi omillar bilan bog‘liq nisbatan barqaror ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvning siyosiy ahamiyati shundaki, etnik identifikatsiyani davlat siyosatini shakllantirishda e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Biroq primordializm etniklikning tarixiy va ijtimoiy o‘zgaruvchanligini yetarlicha tushuntirishda muayyan cheklovlarga ega.

Instrumentalistik yondashuv esa etnik identifikatsiyaning siyosiy elitalar, harakatlar va boshqa subyektlar tomonidan muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida safarbar qilinishiga e’tibor qaratadi. Bu nuqtayi nazarda etniklikning siyosiylashuvi ko‘pincha resurslar, hokimiyat, vakillik va siyosiy ta’sir uchun raqobat bilan bog‘lanadi. Donald Gorovis etnik guruhlarning siyosiy raqobatdagi o‘rni va etnik konfliktlarning siyosiy xususiyatlarini tadqiq etib, etnik mansublikni siyosiy jarayondan alohida qarab bo‘lmasligini ko‘rsatadi[1]. Uning etnik siyosatga oid tadqiqotlari etnik guruhlarning siyosiy harakatlari, partiyaviy raqobat va institutlarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Konstruktivistik yondashuv etniklikni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda shakllanadigan dinamik hodisa sifatida

talqin qiladi. Fredrik Bart etnik guruhlarning mavjudligini ularning madaniy xususiyatlaridan ko‘ra, guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy chegaralarning shakllanishi va saqlanishi bilan bog‘lab tadqiq etgan[2]. Rojers Brubeyker esa etniklikni doimiy va o‘zgarmas “guruh” sifatida emas, balki siyosiy va ijtimoiy munosabatlarda faollashadigan kategoriya, identifikatsiya va tasniflash jarayonlari sifatida tahlil qilish zarurligini asoslagan[3].

Etnosimvolistik yondashuv esa etniklik va millatning shakllanishida tarixiy xotira, ramzlar, miflar, madaniy an’analar va umumiy tarixiy tasavvurlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Entoni Smit millatlarning shakllanishida etnik o‘tmish va umumiy madaniy ramzlarning muhim o‘rin tutishini asoslagan[4]. Bu yondashuv polietnik jamiyatlarda tarixiy xotira va milliy ramzlarning siyosiy integratsiya jarayoniga ta’sirini o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlarni umumlashtirganda, etnopolitik jarayonlarni faqat bitta nazariya asosida tushuntirish yetarli emasligi ko‘rinadi. Etnik identifikatsiya bir vaqtning o‘zida tarixiy-madaniy meros, subyektiv o‘zlikni anglash, siyosiy mobilizatsiya va institutsional muhit ta’sirida shakllanadi. Shuning uchun mazkur dissertatsiyada etnopolitik jarayonlarni tahlil qilishda institutsional, konstruktivistik va integratsion yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi metodologik jihatdan samarali hisoblanadi.

Millatlararo munosabatlarni davlat siyosati nuqtayi nazaridan tushuntirishda liberal yondashuv muhim o‘rin tutadi. Klassik liberalizm shaxs huquq va erkinliklarini siyosiy tizimning asosiy qadriyati sifatida belgilaydi. Shu sababli liberal yondashuvda etnik mansublikdan qat’i nazar barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi asosiy prinsip sifatida qaraladi.

Liberal siyosiy nazariyaning zamonaviy rivojlanishida Vill Kimlikaning qarashlari alohida ahamiyatga ega. U liberal demokratiya sharoitida madaniy xilma-xillikni inobatga olish zarurligini ko‘rsatib o‘tgan. V. Kimlika madaniy huquqlar masalasini individual huquqlar bilan bog‘liq holda tahlil qilib, madaniy jamoalarning o‘ziga xosligi demokratik fuqarolik doirasida tan olinishi mumkinligini asoslagan[5]. Uning tadqiqotlarida liberalizm va madaniy plyuralizm o‘rtasidagi munosabat markaziy o‘rinni egallaydi.

Liberal yondashuvning millatlararo munosabatlar uchun asosiy ahamiyati shundaki, davlat etnik mansublik asosida fuqarolar o‘rtasida huquqiy farq yaratmasligi, shaxsning erkin identifikatsiyasi va madaniy hayotda ishtirok etishi uchun huquqiy kafolatlarni ta’minlashi lozim. Biroq liberal tenglikni formal tenglik bilan cheklab qo‘yish ham yetarli emas. Amaliyotda muayyan etnik guruhlarning til, ta’lim, madaniyat yoki siyosiy vakillik sohasidagi imkoniyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu bois zamonaviy liberal nazariya tenglikning huquqiy jihati bilan birga madaniy va institutsional omillarni ham hisobga oladi.

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati ham fuqarolarning millati, tili, dini va boshqa belgilariga qarab kamsitilmasligini, qonun oldida tengligini ta’minlashga qaratilgan[6]. Bu prinsip liberal huquqiy tenglik g‘oyasi bilan mazmunan uyg‘un bo‘lgan jihatlarga ega.

Multikulturalizm polietnik va madaniy jihatdan xilma-xil jamiyatlarda turli madaniy guruhlarning o‘ziga xosligini tan olishga asoslangan nazariy va siyosiy yondashuvdir. Uning asosiy masalasi turli madaniy guruhlarning huquqlari, identifikatsiyasi va jamiyatdagi o‘rnini umumiy fuqarolik makoni bilan qanday uyg‘unlashtirish mumkinli hisoblanadi.

V.Kimlika multikulturalizmni liberal demokratik fuqarolik bilan bog‘lab, madaniy jamoalarning huquqlarini e’tirof etishni demokratik qadriyatlarga zid emas, balki ayrim hollarda ularni amalga oshirishning bir shakli sifatida ko‘radi[7]. Zamonaviy ilmiy adabiyotda ham multikulturalizmning fuqarolik va siyosiy integratsiya bilan munosabati alohida o‘rganilmoqda. Masalan, Iren Blumraad tadqiqotida multikulturalizm siyosiy va fuqarolik integratsiyasi masalalarini inkor etmasligi, ayrim sharoitlarda ular bilan uyg‘unlashishi mumkinligi tahlil qilingan.[8]

Multikulturalizm yondashuvida davlatning vazifasi madaniy farqlarni bartaraf etish emas, balki ularning umumiy huquqiy va siyosiy makonda rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Bu yerda ta’lim, til, madaniy meros, ommaviy kommunikatsiya va jamoat institutlarida ishtirok kabi sohalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, multikulturalizmga nisbatan nazariy tanqidlar ham mavjud. Ularning bir qismi madaniy guruhlarga haddan tashqari institutsional urg‘u berish umumiy fuqarolik identifikatsiyasining zaiflashishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda multikulturalizmni faqat madaniy avtonomiya nuqtayi nazaridan emas, balki fuqarolik integratsiyasi va umumiy siyosiy qadriyatlar bilan birgalikda tahlil qilish tendensiyasi kuchaymoqda.

O‘zbekiston sharoitida mazkur yondashuvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlash va umumiy fuqarolik birligini mustahkamlash o‘rtasidagi nisbatni aniqlash nuqtayi nazaridan metodologik vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Integratsionizm polietnik jamiyatda turli etnik guruhlarni umumiy siyosiy, huquqiy va ijtimoiy makonga birlashtirish jarayonini markaziy masala sifatida ko‘radi. Bu yondashuv assimilyatsiyadan farq qiladi. Assimilyatsiyada madaniy farqlarning qisqarishi yoki yo‘qolishi asosiy maqsadga aylanishi mumkin bo‘lsa, integratsiyada turli identifikatsiyalarni saqlagan holda umumiy siyosiy hamjamiyatda ishtirok etish imkoniyati ustuvor bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Integratsiya jarayonining siyosiy asosi – umumiy fuqarolik huquqlari, siyosiy institutlarda ishtirok, umumiy qonunchilik va umumiy davlat manfaatlarini anglashdir. Bunda etnik mansublik shaxsning davlatga siyosiy mansubligini belgilab beruvchi yagona mezonga aylanmaydi.

Fuqarolik millatchiligi konsepsiyasi ham shu nuqtada muhim ahamiyat kasb etadi. U milliy birlikni etnik kelib chiqishdan ko‘ra umumiy fuqarolik, konstitutsiyaviy qadriyatlar, siyosiy institutlar va umumiy davlat manfaatlari asosida tushuntirishga harakat qiladi. Benedikt Andersonning millatni “tasavvur qilingan siyosiy hamjamiyat” sifatida talqin qilishi millatning siyosiy-kommunikativ mazmunini tushunish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi[9].

Fuqarolik millatchiligi polietnik davlat uchun shu jihatdan muhimki, u turli etnik guruhlarning umumiy siyosiy hamjamiyatga mansubligini asoslashga imkon beradi. Bunday yondashuvda “millat” etnik birlik bilan cheklanmay, umumiy fuqarolik va siyosiy mansublikni ham anglatishi mumkin.

Shu bilan birga, fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish etnik va madaniy identifikatsiyalarni inkor etish asosida emas, balki ularni umumiy fuqarolik maqomi bilan uyg‘unlashtirish asosida amalga oshirilganda barqarorroq institutsional asosga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonning millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatida ham turli millat va elatlar vakillarining teng huquqliligi, ularning etnik-madaniy o‘ziga xosligini saqlash va shu bilan birga ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining birligini mustahkamlash maqsadlari o‘zaro bog‘liq holda belgilangan[10].

O‘zbekistonning davlat siyosati Konsepsiyasida ham millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, milliylik

belgisiga ko‘ra kamsitishning oldini olish, fuqarolarning teng huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish vazifalari belgilangan[11].

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida etnik konfliktlarni siyosiy boshqarish mexanizmlarini quyidagi tarkibiy qismlar asosida o‘rganish mumkin:

huquqiy tenglik va diskriminatsiyaning oldini olish;

etnik guruhlarning siyosiy va ijtimoiy ishtirokini ta’minlash;

davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi;

milliy-madaniy tashkilotlar bilan muloqot;

ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va monitoring qilish;

mediatsiya va muzokara mexanizmlari;

axborot makonida provokatsion va nafrat uyg‘otuvchi kontentlarning oldini olish;

umumiy fuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlash.

Ijtimoiy hamjihatlik polietnik jamiyatda turli guruhlarning umumiy jamiyatga mansublik hissi, o‘zaro ishonchi, ijtimoiy hamkorligi va umumiy institutlarga munosabatini anglatadi.

O‘zbekistonning millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmon bilan tasdiqlangan Konsepsiyada tizimlashtirilgan. Unda millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, fuqarolarning teng huquqlarini ta’minlash, etnik-madaniy o‘ziga xoslikni saqlash, millatlararo bag‘rikenglik va tinchlikni mustahkamlash davlat siyosatining asosiy maqsadlari sifatida belgilangan[12].

Xulosa. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, polietnik jamiyatda etnik xilma-xillikni boshqarish masalasi bir vaqtning o‘zida huquqiy, siyosiy, institutsional, ijtimoiy va madaniy mexanizmlarni qamrab oladi.

Etnopolitologiyadagi primordialistik, instrumentalistik, konstruktivistik va etnosimvolistik yondashuvlar etniklikning turli qirralarini tushuntirib beradi. Liberalizm huquqiy tenglik va shaxs huquqlarini, multikulturalizm madaniy xilma-xillikni tan olishni, integratsionizm umumiy siyosiy makonga birlashishni, fuqarolik millatchiligi esa umumiy fuqarolik identifikatsiyasini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Etnik konfliktlar nazariyalari esa millatlararo munosabatlarning salbiy transformatsiyasida siyosiy raqobat, resurslar, vakillik, institutsional muhit va elitalarning mobilizatsiyasi kabi omillarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Konfliktlarni siyosiy boshqarishda huquqiy kafolatlar, vakillik, muloqot, institutlararo hamkorlik, mediatsiya va profilaktik monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Horowitz D. L. Ethnic Groups in Conflict. - Berkeley: University of California Press, 1985. - 697 p.
2. Barth F. (ed.). Ethnic Groups and Boundaries: The Social Organization of Culture Difference. - Bergen: Universitetsforlaget, 1969. - 153 p.
3. Brubaker R. Ethnicity without Groups // European Journal of Sociology. - 2004. - Vol. 43, No. 2. - P. 163–189.
4. Smith A. D. The Ethnic Origins of Nations. - Oxford: Basil Blackwell, 1986. - 312 p.
5. Kymlicka W. Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. - Oxford: Clarendon Press, 1995. -280 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. - Toshkent, 2019.
7. Kymlicka W. Politics in the Vernacular: Nationalism, Multiculturalism, and Citizenship. - Oxford: Oxford University Press, 2001.
8. Bloemraad I. Unity in Diversity? Bridging Models of Multiculturalism and Immigrant Integration // Du Bois Review: Social Science Research on Race. - 2008. - Vol. 5, No. 2.
9. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. - London: Verso, 1983.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5876-son Farmoni, 5-band.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5876-son Farmoni, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligiga oid qoidalar.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmoni va unga 1-ilova - “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”.